XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-025-10-139-K/24 Qibray tumani

Qibray tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli, VII-3-031-10-0-K/24-sonli qarorlariga muvofiq hamda Qibray tumani hokimining birinchi o‘rinbosari U.Botirovning 2024-yil 25-dekabrdagi 378-A-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Qibray tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **121,082 mlrd. so‘m** va xarajatlari esa **121,082 mlrd. so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Qibray tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **622,965 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek Qibray tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1,758 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni,

shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlarga muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **4-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **5-ilova**ga muvofiq;

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **7-ilova**ga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **8-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishda qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Botirov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Lavozimiga ko‘ra), tuman Soliq inspeksiyasi (Y.Artikbayev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjet uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va

o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya” raisi F.Miraxmedov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  RASHIDOV MUZAFFAR ABROROVICH

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	ming so‘mda
	JAMI	**121 082 134**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	27 324 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10 100 800
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 374 000
	Aksiz solig‘i jami	4 639 810
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	Pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*4 639 810*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 189 650
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	21 819 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 011 520
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	30 819 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 192 900
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	11 273 454
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	168 000
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	1 170 000

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	ming so‘mda
	Xarajatlar miqdori, jami	**121 082 134**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*34 520 923*
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*2 588 041*
3	Madaniyat bo‘limi	*2 426 251*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*7 478 554*
5	Sport bo‘limi	*4 115 343*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 377 614*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 947 830*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*2 540 796*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	*2 370 609*
11	Hokimiyat	*40 505 090*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*286 295*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*46 200*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 654 295*
	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*3 066 015*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 758 098*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*654 181*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*153 688*
	Axborot-kutubxona markazlari	*500 493*
13	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	22 144 943

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Hududlar nomi			Qibray tumani
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	4%
Foyda solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
pivo	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	7%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	17%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	16%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	30%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman byudjetiga		100%
Davlat boji	Tuman byudjetiga		0%
Jarima	Tuman byudjetiga		0%
Yig‘imlar	Tuman byudjetiga		0%

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor *(so‘mda)*
1	Qibray tumani	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2025-yilga belgilangan koeffitsientlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Qibray tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,00

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
6-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025 yil						
		Chakana savdo			Mai shiy xizmat	Bosh qa faoli yat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovar lari sotish	dehqon bozorla rida qishloq xo‘jaligi mahsul ot lari sotish	gazeta jurnalla r va kitob mahsul ot lari sotish			3 tonnaga cha yuk tashish avtomob illari uchun	3 tonna dan ortiq yuk tashis h avtom o billari uchun
	Tavsiya etilgan stavka	**265-800**	**65-200**	**65-200**	**65-200**	**65-200**	**250,00**	**350,00**
1	Qibray tumani	700,00	200,00	200,00	200,00	200,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Qibray tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish meyoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Madaniyat MFY	1,05	6 196,58	1,05	538,02
2	Iftihor MFY	1,23	7 258,85	1,23	630,25
3	Qipchoq MFY	1,04	6 137,56	1,04	532,90
4	Ko‘prikboshi MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
5	Qurilish MFY	1,06	6 255,59	1,06	543,14
6	Istiqlol MFY	1,04	6 137,56	1,04	532,90
7	May MFY	1,02	6 019,53	1,02	522,65
8	Nurafshon MFY	1,15	6 786,73	1,15	589,26
9	Mehnat MFY	1,09	6 432,64	1,04	532,90
10	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
11	Mustaqillik MFY	1,05	6 196,58	1,05	538,02
12	Navbahor MFY	1,08	6 373,62	1,07	548,27
13	Navro‘z MFY	1,27	7 494,91	1,25	640,50
14	Nurobod MFY	1,04	6 137,56	1,04	532,90
15	Istiqbol MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
16	Ma‘rifat MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
17	Ilg‘or MFY	1,04	6 137,56	1,04	532,90
18	Alisher Navoiy MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
19	Zebuniso MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
20	Baytqurgon MFY	1,09	6 432,64	1,21	620,00
21	Ahillik MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64

22	Birlik MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
23	Abdurahmon Jomiy MFY	1,04	6 137,56	1,04	532,90
24	Boyjigit MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
25	Botanika MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
26	Bunyodkor MFY	1,25	7 376,88	1,25	640,50
27	Bo‘ston MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
28	G‘afur G‘ulom MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
29	Guliston MFY	1,21	7 140,82	1,21	620,00
30	Darxon MFY	1,09	6 432,64	1,09	558,52
31	Do‘rmon MFY	1,23	7 258,85	1,23	630,25
32	Yonariq MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
33	Yoshlik MFY	1,07	6 314,61	1,07	548,27
34	Zahiriddin Muxammad Bobur MFY	1,29	7 612,94	1,29	661,00
35	Ziyokor MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
36	Obod MFY	1,09	6 432,64	1,09	558,52
37	Beruniy MFY	1,15	6 786,73	1,15	589,26
38	Oq-oltin MFY	1,06	6 255,59	1,06	543,14
39	Oybek MFY	1,21	7 140,82	1,21	620,00
40	Yuqori yuz MFY	1,21	7 140,82	1,21	620,00
41	GES Qodiriya MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
42	Yangihayot MFY	1,07	6 314,61	1,07	548,27
43	Yangiobod MFY	1,23	7 258,85	1,23	630,25
44	Yangiyo‘l MFY	1,10	6 462,14	1,10	561,08
45	Yangi O‘nqo‘rg‘on MFY	1,19	7 022,79	1,19	609,76
46	Yangi avlod MFY	1,06	6 226,08	1,06	540,58
47	Shodlik MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
48	Sharq MFY	1,05	6 167,07	1,05	535,46
49	Shalola MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
50	Chinobod MFY	1,07	6 285,10	1,07	545,71
51	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	1,05	6 167,07	1,05	535,46
52	Hosildor MFY	1,06	6 226,08	1,06	540,58
53	Yangi Arg‘in MFY	1,21	7 140,82	1,21	620,00
54	Fidokor MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
55	Xaydarobod MFY	1,21	7 140,82	1,21	620,00
56	Olmazor MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
57	Parvoz MFY	1,22	7 199,83	1,22	625,13
58	Pulat qadam MFY	1,07	6 314,61	1,07	548,27
59	Sohibkor MFY	1,19	7 022,79	1,19	609,76
60	Tinchlik MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
61	Turkiston MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39

62	Taraqqiy MFY	1,09	6 432,64	1,09	558,52
63	Uzumzor MFY	1,08	6 373,62	1,08	553,39
64	Uymovut MFY	1,07	6 314,61	1,07	548,27
65	O‘nqo‘rg‘on MFY	1,24	7 323,76	1,24	635,38
66	O‘tkir MFY	1,09	6 432,64	1,09	558,52
67	Fayzobod MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64
68	Farovon MFY	1,10	6 491,65	1,10	563,64

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Qibray tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	**Tuman nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i,** ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	koeffit sient	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	koeffit sient	2025-yil stavka
1	Qibray tumani	5,50	1,30	7,15	11,00	1,30	14,30

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-10-139-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilishda qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

№	Hudud nomi	**100** dan **1000** gacha *(kv.m)*	**1000** dan **10 000** gacha *(kv.m)*	**10 000** dan **30 000** gacha *(kv.m)*	**30 000** va undan yuqorisiga *(kv.m)*
1	Qibray tumani	1,5	1,3	0,7	0,5